

Ulug'bek Hamdamning "Yosh ko'ngil. Oybek - kecha va bugun" nomli kitobi taqdimoti o'tkazildi

Joriy yilning 14-mart kuni O'zbekiston Milliy kutubxonasida Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tavalludining 120 yilligi munosabati bilan taniqli adib Ulug'bek Hamdamning "Yosh ko'ngil. Oybek - kecha va bugun" nomli kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.







Kitob O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga ko'ra Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tavalludining 120 yilligi munosabati bilan G. G'ulom nashriyatida chop etilgan bo'lib, u O'zR FA, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti hamda Oybek uy-muzeyi ilmiy xodimlari hamkorligida tayyorlangan.

Tadbirda mehmonlar Oybek hayoti va ijodini batafsil yod etdilar, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning xalqimiz e'tiboriga taqdim etilgan durdona asarlari kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak.